



OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KLASTER TEKNOLOGIYALARI

Baxtiyorova S.I.

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Ganjayeva Z.O.

BuxDPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talabasi

Tayanch so'zlar: ta'lim, texnologiya, klaster, pedagogika, islohat, electron darslik tizimi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, innovatsion klaster usuli, interfaol ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Ключевые слова: образование, технологии, кластер, педагогика, реформа, система электронных учебников, инновационные образовательные технологии, инновационный кластерный метод, интерактивное образование, информационно-коммуникационные технологии.

Key words: education, technology, cluster, pedagogy, reform, electronic textbook system, innovative educational technologies, innovative cluster method, interactive education, information and communication technologies.

Bugungi kunda fan, ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlarining o'zaro amaliy integratsiyasi ta'minlangan taqdirdagina o'z oldiga qo'ygan natijalarga erisha oladi. Ta'lim-tarbiya jarayoni iqtisodiyotning o'zaro chuqur, har tomonlama uzluksiz aloqasini ta'minlay olgan va jamiyat hayotining barcha sohalariga tatbiq eta olgan davlat esa taraqqiyotga erishishi mumkin. Bu borada mamlakatimiz ta'lim sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emas. Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to'g'risidagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ham dolzarb masalalar qatorida ilm-fan va ta'lim, ta'lim va ijtimoiy-iqtisodiy




hayot munosabatlariga alohida urg'u berilganligi bejiz emas. Modomiki, ta'lim tizimining markazida inson kapitali, uni to'g'ri taqsimlash, undan samarali foydalanish va maqsadli yo'naltirish turar ekan, bunda oliy ta'lim tizimini jamiyatning barcha manfaatdor tomonlari, ta'lim jarayonining barcha subyektlari bilan yaxlit bir butunlikda bugungi kun talablari asosida tashkil etish hamda ta'limning to'liq uzluksizligiga erishish oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. O'qitish va ishlab chiqarish amaliyotining rolini oshirish va asosiy mutaxassislik fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni qisqartirishdan iborat bo'lgan ta'limni modernizatsiya qilishning zamonaviy tendentsiyalari o'qituvchini o'rganilayotgan materialni tizimlashtirish va tuzishning yangi usullari va uslublarini izlashga undaydi. Shu bilan birga, shuni hisobga olish kerakki, fanni o'rganishga ajratilgan barcha soatlarning atigi 40 foizi auditoriya mashg'ulotlariga to'g'ri keladi, qolgan qismi talabanning mustaqil ishi. Shuning uchun bugungi kunda yangi pedagogik texnologiyalarni, masalan, blok-modulli o'qitish, masofadan turib o'qitish va hokazolarni joriy etishga katta e'tibor berilmoqda, bu bizga o'quv jarayonini tabaqalashtirilgan, moslashuvchan, muammoli yo'naltirilgan, faol va ijodiy qilishga imkon beradi.

Ayni paytda ta'lim tizimining hamma jabhalarida ayrim kamchiliklar va xatolar uchrab turibdi. Hozirda xalq ta'limi vazirligi tomonidan respublikaning barcha ta'limga tegishli bo'lgan sohalaridagi mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari, yoshlarni ta'lim-tarbiya sohasida oldinga siljish omillari ustida ishlanmoqda. Xalq ta'limi tizimida ko'plab yangi loyihalar, takliflar muhokama qilinmoqda. Ular orasida eng ma'qul va maqsadli hamda tezkorlik bilan pedagogik tizim muammo va kamchiliklariga oqilona yechim deb "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" taklifi qo'llab-quvvatlanmoqda. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida amalda qo'llanib, ta'lim tizimida yetakchi natijalarga erishishning innovatsion modeli sifatida qaralmoqda.

Ta'lim nuqtai nazaridan "Klaster" atamasining ma'nosi aniq belgilangan. Shunga qaramay mavjud ta'riflarning katta miqdori deyarli har doim ta'lim hamjamiyati tomonidan bir xil tushuniladi. Innovatsion ta'limning xususiyatlari, ya'ni birlashma va qo'shma resurslardan foydalanish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot natijalari va sifatni yaxshilash uchun professional faoliyat ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligi rivojlanishi uchun xizmat qiladi. O'qitish texnologiyalarini takomillashtirishda innovatsiya va shunga mos ravishda innovatsion texnologiyalar nima ekanligini ko'rib chiqaylik. Shuni tushunish kerakki, innovatsiya barcha turdagi yangiliklarni yaratish bilan bog'liq va amalga oshirish jarayonidir. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish texnologiyalarini

rivojlantirish muhitida ma'lum bir usulni tadbiq etilishi, sohasiga yangi narsaning kirib borishi, unga joylashtirish va butun bir qator o'zgarishlarni yaratishni anglatadi. Innovatsion klaster usuli ish samaradorligini oshiribgina qolmay hamda boshqarish tizimini ham optimallashtiradi. Oliy ta'lim muassasalarida klaster yondashuvini amalga oshirishning asosiy afzalliklari:



ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlarni amaliyotda taqbiq etish imkonini beradi.

Ta'limning bugungi vazifasi talaba yoshlarni kunsayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir.

Xorijiy mamlakatlarning innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, nisbatan rivojlangan ilmiy salohiyatga ega bo'lgan davlatlar pedagogik tizimning innovatsion klasterini amalda to'g'ri tatbiq etib, undan oqilona foydalanib kelmoqdalar. Amaliyot har bir loyiha uchun muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Hech kimga sir emaski amaliyotda har bir loyiha albatta turli muammolarga uchraydi. Tajribalar davomida har bir muammoga yechim topiladi. Quyida Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik ta'lim klasteri vositasida texnologik ta'lim tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha uchraydigan ayrim muammolar va ularning taxminy yechimlari keltiriladi:

- bo'lajak yosh mutaxassislarni chuqur innovatsion bilimga ega qilib xalq xizmatiga tayyorlash;
- aynan hozir bo'lajak texnologiya-o'qituvchi yoshlar maktab amaliyotida elektron darsliklar bilan ishlash jarayoniga duch kelmoqdalar. Mana shu



elektron darsliklar barcha fanlarda har bir dars uchun mo'ljallanmagan. Yosh texnologlar kompyuterdan oqilona va unumli foydalanish yo'llarini mukammal bilishlari lozimki, toki ular multimedia ilovalarini mustaqil yaratish kabi malakaga ega bo'lishsin. Buning yechimi oliy ta'lim muassasalarida AKT darslariga ko'proq dars soati ajratilishi deb hisoblanadi.

Texnologik ta'limda o'rganiladigan bilimlarni zamonaviy xalqaro ta'lim yo'nalishlari bilan birlashtirib olib borish lozim. Buning uchun chet el olimlari bilan hamkorlikni kuchaytirish

Pedagogik ta'lim klasterining har bir bo'g'inida samarali-natijaviy hamkorlik hamda tajriba almashishni yo'lga qo'yish

Oliy ta'lim muassasalarida tajribali professor-o'qituvchilar uslubiy ko'magini tashkil etish

Oliy ta'lim muassasalarini sifatli o'quv qo'llanmalar va elektron darsliklar bilan ta'minlash

Hozirda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning amaliyotda kam bo'lishi bo'lajak o'qituvchilarning ish faoliyatini olib borishiga ruhan tayyor emasligi ham juda katta muammo sanaladi. Oliy ta'lim muassasalarida amaliyotning kamligi sabab yosh o'qituvchi maktab sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Oqibatda darslarda to'la ko'zlangan natijaga erishmaydilar.

Ta'limda eng katta muammolardan biri darsliklar masalasi bilan bog'liq. Uzluksiz ta'lim tizimida yangilangan darsliklarni o'z vaqtida yetib kelmasligi o'quvchilar bilimida katta bo'shliqlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Lozim topilsa, sifatli tahririyatlar sonini oshirish darkor. Bu ham klasterlashning moliyaviy masalalaridan biri sanaladi.

Texnologik ta'lim mutaxassislarini tayyorlashning samaradorligini innovatsion klaster usulida oshirish uchun quyidagilar muhim sanaladi:

Xulosa va takliflar. Bizning oldimizda yoshlarimizning kelajakda o'z o'rnini topa oladigan, hayotning past-baland yo'llarida o'zini yo'qotib



qo‘ymasliklarida, o‘z qarorlarini ongli va to‘g‘ri qabul qiladigan ravishda tarbiyalashdek mashaqqatli vazifa turibdi. Hozirda pedagogik ta‘lim innovatsion klasterida mana shu sharafli hamda mas‘uliyatli vazifalarning yechimlari keng va atroficha hal bo‘lmoqda. Oliy ta‘lim muassasalari ilmiy taraqqiyot va fan birgalikdagi rivojlanishi uchun poydevor qo‘yadigan asoslardan biridir. Klasterni amalga oshirish sifati uchun mas‘uliyat oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ilmiy xodimlarning har birining zimmasiga tushishini eslatishimiz zarur. Klaster usulida tahlil juda qulay ko‘p sonli nomutanosiblikni idrok etishni osonlashtiradigan vosita bo‘lib xizmat qilishini takidlash joiz.

Adabiyotlar:

1. Бахтиярова С. И. Совершенствование методологии использования инновационных педагогических технологий при подготовке специалистов в вузах // *Educational Research in Universal Sciences*. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 507-511.
2. Baxtiyoroʻva S. I., Ganjayeva Z. O. Texnologik ta‘limda xalqaro baholash tizimini joriy etish metodikasi // *golden brain*. – 2023. – Т. 1. – №. 33. – С. 67-72.
3. Hamdamova N., Hamidov R. Texnologiyani o‘rta talim maktablarida rivojlantirish usullari // *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 116-120.
4. Muqimovna, H. N. ., Boboqulovna, X. N. ., & qizi, B. S. I. . (2023). Innovative teaching METHODS. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(9), 39-42. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/1310>
5. Bakhtiyorova S. I., Sharopova M. F. “Improving the teaching process of materials science on the basis of foreign experience // *E-Conference Globe*. – 2021. – С. 46-48.
6. Baxtiyoroʻva S. I., Joʻrayeva D. B. 5 Sinf texnologiya darslarida “materiallarga ishlov berish bo‘limi” ni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish // *GOLDEN BRAIN*. – 2023. – Т. 1. – №. 33. – С. 73-79.
7. Бахтиёрова С. И. Использование программного обеспечения в преподавании материаловедения // *Наука, техника и образование*. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 80-83
8. Bakhtiyorova S. I., Namroyeva X. Y. Methods of Teaching Materials Science on the Basis of Innovative Educational Technologies // *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*. – 2022. – Т. 7. – С. 133-136.
9. Vaxronova S., Davlatova N. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 144-148.
10. Vaxronova S., Davlatova N. Texnologiya fanidan mashg‘ulotlarni tashkil qilishning zamonaviy kompetensiyalari // *Бюллетень педагогов Нового Узбекистана*. – 2023. – т. 1. – №. 7. – с. 64-68.
11. Davlatova N. Texnologiya fanining “servis xizmati” yo‘nalishidan talabalar mustaqil ta‘limini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari // *Science and innovation in the education system*. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 82-86.
12. Islamovna B. S., Ubaidilloevna D. N., Norjona P. Modern competences of organizing technology courses // *Samarali ta‘lim va barqaror innovatsiyalar*. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 146-151.

РЕЗЮМЕ

Maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Ta‘limning interfaol shakllaridan foydalanish xususiyatlari ko‘rsatilgan. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish dinamikasi aniqlandi. O‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘qitish metodikasini takomillashtirish haqida so‘z borib, mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan, kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va



ijodkorligini har tamonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'rganish. Ta'limning interaktiv shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish monitoringi olib borildi. Ta'lim amaliyoti va ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning klaster interfaoligi va samaradorligi ochib berildi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются особенности внедрения инновационных педагогических технологий. Показаны особенности использования интерактивных форм обучения. Определена динамика внедрения инновационных технологий. В процессе обучения мы говорим о совершенствовании методики преподавания с использованием инновационных педагогических технологий, всемерной поддержке творческих идей и творчества молодых людей, стремительно развивающихся на пути инновационного развития нашей страны, являющихся продолжателями нашей будущее, формирование своих знаний, навыков и квалификации и совершенствование системы оценивания на основе передового зарубежного опыта, международных критериев и требований, таким образом, овладевая инновационными педагогическими технологиями. Проведен мониторинг использования интерактивных форм обучения и информационно-коммуникационных технологий. Выявлены интерактивность кластера и эффективность использования инновационных технологий в образовательной практике и образовании.

SUMMARY

The article examines the features of introducing innovative pedagogical technologies. Features of using interactive forms of education are shown. The dynamics of the introduction of innovative technologies were determined. In the process of teaching, we talk about improving the teaching methodology using innovative pedagogical technologies, and fully supporting the creative ideas and creativity of young people, who are rapidly developing in the path of innovative development of our country, who are the successors of our future, formation of their knowledge, skills and qualifications and improvement of the assessment system based on advanced foreign experiences, international criteria and requirements, in this way, learning innovative pedagogical technologies. Monitoring of the use of interactive forms of education and information and communication technologies was carried out. Cluster interactivity and effectiveness of using innovative technologies in educational practice and education were revealed.